

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

*70730201-Kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish
magistratura mutaxassisligi*

MALAKA TALABLARI

Toshkent-2024

Qualifikatsiya

O'ZR O'LIY
Buyruq № 277
2024 yil "01" ok

ISHLAB CHIQLIGAN :

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil «01» 08 dagi 277 - sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. Umumiy tavsifi.....	4
1.1. Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalari.....	5
2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	7
3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	8
4. Fanlar katalogining tuzilishi.....	8
Bibliografik ma’lumotlar.....	10
Kelishuv varag‘i.....	11

1. Umumiy tavsifi

70730201 — Kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. O'qish kredit – modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 70730201 - Kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul – oliy ta'lim muassasalarining professor–o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv reja va o'quv dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga mas'ul bo'lgan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

magistratura mutaxassisliklaridan birini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan magistraturalar va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.1. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

70730201 - *Kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish* mutaxassisligi – oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash hamda professional ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid pedagogik va ilmiy-pedagogik faoliyat, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy–tadqiqot va ilmiy ishlab chiqarish tashkilotlarida ilmiy-tadqiqot faoliyati, mulkchilik shaklidan qad'iy nazar turli tarmoqlarda qurilish, xizmat ko'rsatish ishlarini amalga oshirish va uni boshqarish faoliyati, davlat boshqaruvi organlari, ishlab chiqarish va biznes tashkilotlarida mutaxassislik va uy-joy kommunal sohasiga oid ekspertlik va tashkiliy-boshqaruv faoliyatni qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Transport vazirligi, Energetika vazirligi hamda boshqa vazirlik, idora va davlat boshqaruv organlari, aksiyadorlik jamiyatlari, ular tassarufidagi korxonalar va tashkilotlar;

oliy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional, o‘rta maxsus ta‘lim muassasalari;

turli mulkchilik shaklidagi uy-joy kommunal xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalari, xolding kompaniyalar, assotsiatsiyalar, konsernlar, uyushmalar, qo‘shma korxonalar, xorijiy korxonalar, birjalar, banklar, konsalting va venchur korxonalar, turli korxonalar tashkilotlarining qurilish hamda bino va inshootlardan foydalanish faoliyati bilan bog‘liq jarayonlar;

iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalari binyod etilgan qurilish obyektlari.

Mutaxassislik bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda magistrning kasbiy faoliyat obyektlari tarkibiga qo‘shimcha va o‘zgarishlar kiritilishi mumkin.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

Pedagogik va ilmiy–pedagogik faoliyat;

Ilmiy–tadqiqot faoliyati;

Ishlab chiqarish–texnologik faoliyat;

Tashkiliy–boshqaruv faoliyat;

Konsalting xizmati faoliyati.

Mutaxassislik bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda magistrning kasbiy faoliyat turlari tarkibiga qo‘shimcha va o‘zgarishlar kiritilishi bo‘lishi mumkin.

Kasbiy vazifalari.

70730201 - Kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Pedagogik va ilmiy–pedagogik faoliyatda:

oliy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta‘lim muassasalarida mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik va o‘quv-uslubiy faoliyat yuritish; o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasini egallash, o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv–uslubiy va me‘yoriy-uslubiy hujjatlarni tayyorlash va belgilangan tartibda rasmiylashtirish;

o‘quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil etish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanib o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o‘quv uslubiy majmualarni mukammal o‘zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish;

ta‘lim jarayonining metodik asoslarini boyitish va takomillashtirishga intilish, ma‘ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar mazmunini ishlab chiqish, o‘quv adabiyotlarini

yaratish va tahrir qilish, ta’lim uslubiyoti bo’yicha maqolalar yozish va takliflar tayyorlash;

mutaxassislik mavzulari bo’yicha ilmiy va ilmiy-uslubiy loyihalarda ishtirok etish hamda bu kabi loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy-uslubiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish.

Ilmiy–tadqiqot faoliyatida:

ilmiy–tadqiqot, tajriba-sinov va boshqa ilmiy izlanishlarni o’tkazish, tadqiqot va tajriba natijalarini tahlil qilish, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqola, risola, boshqa ilmiy adabiyot va bosma materiallarni tayyorlash hamda tahrir qilish, o’tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo’yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

davriy ilmiy nashrlar, ilmiy adabiyotlar va internet tarmog’ida eng yaxshi ilmiy, loyiha-konstruktorlik, texnologik yutuqlar haqida ma’lumotlarni izlash va tahlil qilish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o’tkazish hamda faol ishtirok etish;

mutaxassislik mavzusi bo’yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish.

Ishlab chiqarish–texnologik faoliyatida:

birlamchi ishlab chiqaruvchi bo’g’in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo’yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tadbiiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;

namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo’llash;

ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanish;

ishlab chiqarish va kommunal infratuzilmani tashkil etish va xizmat ko’rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo’llash, investitsion loyihalarni ishlab chiqish va boshqarish;

uy-joy kommunal xo’jaligi sohasidagi ishlarni amalga oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo’llash;

uy-joy kommunal xo’jaligi ishlarini amalga oshirish bo’yicha me’yoriy, me’yoriy-huquqiy hujjatlarni bilish va ularga rioya qilish.

Tashkiliy–boshqaruv faoliyatida:

loyihalarni boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish, favqulodda sodir bo’lishi mumkin bo’lgan xavf–xatarlarni tahlil qilish, loyiha jamoasini boshqarish;

uy-joy kommunal sohasiga oid zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog’liq bo’lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlaridan foydalanish hamda ularni takomillashtirish;

uy-joy kommunal sohasida ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini joriy etish va uni takomillashtirish;

uy-joy kommunal bino va inshootlaridan foydalanish jarayonlarini boshqarish; mutaxassisligiga tegishli ilmiy tadqiqot loyihalarini amalga oshirish jarayonlarini va ilmiy jamoani boshqarish;

ta’lim muassasalarini boshqarish va o’quv jarayonini tashkil qilish, e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o’qitishni tashkil qilish va korporativ ma’lumotlar bazasini rivojlantirish;

davlat boshqaruvi organlarida tegishli soha bo’yicha boshqaruv faoliyatini yuritish.

Konsalting xizmati faoliyatida:

uy-joy kommunal soha bo’yicha ekspert guruhlarini tarkibida ishtirokchi sifatida qatnashish;

mutaxassislik bo’yicha konsalting xizmatlarini ko’rsatish.

2. Kasbiy kompetentsiyalariga qo’yiladigan talablar:

ilmiy-tadqiqot metodologiyasini, maxsus fanlarni o’qitish metodikasini bilish; mutaxassislikka oid ilmiy–tadqiqot, tajriba-sinov va boshqa ilmiy izlanishlarni o’tkazish, ilmiy va ilmiy-amaliy natijalarga erishish, tadqiqot va tajriba natijalarini tahlil qilish, ilmiy asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqish kompetensiyasiga ega bo’lish;

ilmiy va ilmiy-uslubiy ishlar bo’yicha ilmiy maqola, dissertatsiya, risola, boshqa ilmiy adabiyot va bosma materiallarni tayyorlash hamda tahrir qilish, o’tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo’yicha ilmiy ma’ruzalar qilishni bilish;

mutaxassislik mavzulari bo’yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqishni bilish;

mutaxassislikka oid fanlarni chuqur bilish va bular bo’yicha oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’lim muassasalarida pedagogik va o’quv-uslubiy faoliyat yuritish kompetensiyasiga ega bo’lish;

o’quv fanlarini o’qitish metodikasini egallash, o’quv–uslubiy va me’yoriy-uslubiy hujjatlarni tayyorlash va belgilangan tartibda rasmiylashtirish ko’nikmalariga ega bo’lish;

o’quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil etish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o’qitishning texnik vositalaridan foydalanish ko’nikmalariga ega bo’lish;

o’z faoliyatida tegishli me’yoriy, me’yoriy-huquqiy, me’yoriy-uslubiy hujjatlarni bilish va ulardan foydalanish ko’nikmasiga ega bo’lish, xorijiy me’yorlaridan habardor bo’lish;

kasbiy faoliyatida axborotni to’plash, saqlash, unga ishlov berish, uni qo’llash, axborot texnologiyalaridan foydalanish ko’nikmalariga ega bo’lish, axborot xavfsizligining asosiy talablarini bilish;

uy-joy kommunal xo’jaligining rivojlanish tendensiyalarini oldindan ko’ra

bilish, ilmiy-texnik muammolarni yechish bilim va ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

kommunal infratuzilma ob‘ektlarida ishlarni rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish usullari va vositalarini bilish;

ta‘lim muassasalarini boshqarish va o‘quv jarayonini tashkil qilish, ilmiy tadqiqot loyihalarini amalga oshirish jarayonlarini va ilmiy jamoani boshqarish, davlat boshqaruvi organlarida tegishli soha bo‘yicha boshqaruv faoliyatini yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va kadrlarni boshqarish strategiyasini qo‘llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani axborot tizimlarini va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni, ma‘lumotlar bazasini yuritishni bilish;

strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni ta‘minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

kommunal infratuzilmani tashkil etishda moliyaviy boshqaruvning asosiy usullarini qo‘llay bilish;

loyihalar va shartnomalarni shakllantirish hamda boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

kommunal infratuzilmani tashkil etishda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, ularni aniq boshqaruv vazifalariga moslashtirish orqali va tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirishda miqdoriy va sifatli tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

kommunal infratuzilmani boshqaruv ma‘lumotlari asosida boshqarish va qarorlarni qabul qilish uquviga ega bo‘lish;

yangi tashkilotlarni (faoliyat yo‘nalishlari, mahsulotlari) yaratish va rivojlantirish uchun shaharsozlik va uy-joylarni ekspluatatsiyasi kompetensiyalarida biznes rejalashtirish yaratish va rivojlantirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Magistratura mutaxassisligi bo‘yicha quyidagi amaliyot o‘tkaziladi:

Ilmiy amaliyot (stajirovka) – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan olgan nazariy bilimlarni korxonada va tashkilotlarda tadqiq etish va olingan ilmiy natijalarni ilmiy tadqiqot ishiga tadbiiq etishni shakllantirishga qaratiladi.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o‘tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	1260	42	1,2,3
1.01	ITM1101	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o‘tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	1260	42	1,2,3
1.01	ITM1101	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO‘M1104	Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi	120	4	1
1.03	UKISB11	Uy-joy kommunal infratuzilmani strategik boshqarish	120	4	1
1.04	KIOM11	Kommunal infratuzilma obyektlari menejmenti	180	6	1
1.05	KMBSA11	Ko‘chmas mulk bozorida serveying asoslari	180	6	2
1.06	KIIB12	Kommunal infratuzilmani innovatsion va investitsion boshqarish	120	4	2
1.07	MEMF12	Muqobil energiya manbalaridan foydalanish	180	6	1
1.08	UJKITEB123	Uy-joy kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish	240	8	2,3
2.00		Tanlov fanlar	540	18	2,3
2.00		Tanlov fanlar (4 ta fan)	540	18	2,3
		Jami	1800	60	
	Kvalifikatsiya	muhandis (tadqiqotchi pedagog)			
3.00		Ilmiy faoliyat	1800	60	
3.01	ITIMDT1130	Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash	900	30	1,2,3,4
3.02	IPI1116	Ilmiy-pedagogik ish	480	16	1,2,3
3.03	IA(S) 1414	Ilmiy amaliyot (stajirovka)	420	14	4
		Jami:	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01:040. 01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, uy-joy kommunal infratuzilmani strategik boshqarish, uy-joy fondi, kommunal infratuzilma, uy-joy kommunal xo'jaligi, ko'p kvartirali uylar, boshqaruvchi tashkilotlar, mustaqil ta'lim, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, ilmiy amaliyot (stajirovka), maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar iste’molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Rektor

B.Tulaganov

2024 “ _____ ”

M.O’.


KELISHILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

Direktor M. Boltaboyev

2024 “ _____ ”

M.O’.



“PUK MADALI SERVICE”

MCHJ BSK

Hudud boshlig’i K.U. Suvanov

2024 “ _____ ”

M.O’.



«Uy-joy fondini professional boshqaruvchi va unga xizmat ko’rsatuvchi tashkilotlar uyushmasi»

ijrochi direktori R.R. Ortikova

2024 “ _____ ”

